

## QIMOR O'YINLARINING QONUN BILAN TARTIBGA SOLISH: TURLI DAVLATLARDAGI QONUNYIY YONDASHUVLAR.

Javohir Jayliboyev

Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Jinoiy odil-sudlov fakulteti 1-bosqich talabasi.

[jayliboyevjavohir@gmail.com](mailto:jayliboyevjavohir@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14173534>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qimor o'yinlarini qonun bilan tartibga solishning qanchalik zarur ekanligi va jahondagi turli davlatlar hukumatlari tomonidan qonun bilan qanday tartibga solinishi o'rganiladi. Tadqiqotda qimor o'yinlarini tartibga solishning qanchalik zarur ekanligi xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari asosida o'rganiladi. Shuningdek, tadqiqotda Buyuk Britaniya, Singapur va O'zbekistonning huquqiy tizimlaridagi qimor o'yinlarini nazorat qilishga qaratilgan qonunlar qiyoslash orqali o'rganildi. Izlanish natijasida qimor o'yinlarini samarali tartibga solishga qodir bo'lgan qonunchilik tizmiga ega bo'lishning nihoyatda ahamiyatga ega ekanligi, O'zbekistondagi qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tartibga soluvchi qonunlarning ushbu o'yinlarni taqiqlovchi xarakterga ega ekanligi, Singapurda ham taqiqlovchi qonunlar mavjud bo'lishiga qaramasdan ayrim hollarda qimorga ruxsat berilganligi, Buyuk Britaniyada esa qimor o'yinlariga qonun bilan ruxsat berilganligi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** Qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar, qimorga qaramlik, patologik qimorbozlik, qonunchilik tizimlari, statistik ma'lumotlar.

### GAMBLING REGULATION: LEGAL APPROACHES IN DIFFERENT COUNTRIES

**Abstract.** This article examines how necessary it is to regulate gambling by law and how it is regulated by law by the governments of different countries around the world. The research examines the necessity of gambling regulation based on the information of international organizations. Also, the study compared the laws aimed at controlling gambling in the legal systems of Great Britain, Singapore and Uzbekistan. As a result of the research, it is extremely important to have a legal system capable of effectively regulating gambling games, that the laws regulating gambling and risk-based games in Uzbekistan have a prohibitive nature of these games, and the laws prohibiting them in Singapore. Despite its existence, it has been found that gambling is allowed in some cases, and in Great Britain gambling is allowed by law.

**Key words:** Gambling and risk-based games, gambling addiction, pathological gambling, legal systems, statistical data.

## РЕГУЛИРОВАНИЕ АЗАРТНЫХ ИГР: ПРАВОВЫЕ ПОДХОДЫ В РАЗНЫХ СТРАНАХ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается, насколько необходимо регулировать азартные игры законодательно и как они регулируются законом правительствами разных стран мира. В исследовании рассматривается необходимость регулирования азартных игр на основе информации международных организаций. Также в исследовании сравнивались законы, направленные на контроль над азартными играми в правовых системах Великобритании, Сингапура и Узбекистана. В результате исследования крайне важно наличие правовой системы, способной эффективно регулировать азартные игры, что законы, регулирующие азартные игры и рискованные игры в Узбекистане, носят запретительный характер, а запрещающие их законы в Сингапуре, несмотря на свое существование, выяснилось, что азартные игры разрешены в некоторых случаях, а в Великобритании азартные игры разрешены законом.

**Ключевые слова:** Азартные игры, основанные на риске, игровая зависимость, патологическая азартность, правовые системы, статистические данные.

### I. Kirish

Qimor o'yinlari qadimgi zamonlardanoq insonlarning mashg'ulotlaridan bo'lib kelgan. Bu o'yinlar qadimgi sivilatziyalarda ham mavjud bo'lgan va qoidalar bilan tartibga solinib turgan.

Qadimgi Xitoy va Rim qonunlarida, shuningdek, yahudiy Talmudida, islom va buddizm tomonidan tartibga solingan, bu qoida tariqasida keskin qisqartirilgan edi va Qadimgi Misrda o'yinchilarni karerlarda majburiy mehnatga mahkum etishlari mumkin edi. O'rta asrlarda ham Yevropa davlatlarida qimor o'yinlarini qoralovchi farmonlar mavjud bo'lgan. Bugungi kunda ham qimor o'yinlari o'zining dolzarbligini yo'qotmagan<sup>1</sup>. XXI asrning boshlariga kelib, G'arb davlatlarida har besh kishidan to'rttasi kamida vaqti-vaqti bilan qimor o'ynagan. Ayniqsa so'ngi yillardagi texnologiya yutuqlari natijasida qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarning turlari ko'paymoqda. Buning natijasida qimor o'yinlarining axborot-texnologiyalariga bog'liq bo'lgan yangi turlarini o'ynash dunyodagi barcha davlatlarning, hatto ushbu davlatlarda qimor qonun bilan taqiqlangan bo'lsa ham, aholisi uchun osonlashdi va davlatlar hukumatlari uchun yangi ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni keltirib chiqardi. Masalan, muammoli darajada qimor o'ynaganlar orasida o'z joniga qasd qilish umumiy aholiga qaraganda ancha yuqori.

<sup>1</sup> Glimne, Dan. (29 October 2024).Gambling. In Encyclopedia Britannica, <https://www.britannica.com/topic/gambling>. Accessed 2 November 2024

Italiyada qimorga qaramlik tashxisi qo'yilganlar orasida o'z joniga qasd qilish darajasi umumiy aholiga nisbatan 93,72 ni tashkil etdi.

Shvetsiyada qimor o'yinlarining buzilishi tashxisi qo'yilgan shaxslar umumiy aholiga nisbatan o'lim darajasi 1,8 baravarga va o'z joniga qasd qilish o'limi 15 baravarga ko'payganligi ko'rsatilgan. Shvetsiya aholisiga asoslangan boshqa tadqiqotga ko'ra, o'z joniga qasd qilishga urinishlar muammoli qimor o'ynaganlar orasida (6,6 foiz) nazorat guruhlariga (3,3 foiz) nisbatan ikki baravar ko'p bo'lgan<sup>2</sup>. Bundan tashqari odamlar qimor sababli yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarga qimorga qaramlik, ruhiy kasalliklar, jinoyatlar sodir etish, munosabatlardagi muammolarni kiritishimiz mumkin. Qimor o'yinlari ortidan odamlarda nafaqat ijtimoiy muammolar balki moliyaviy muammolar ham yuzaga kelmoqda. Masalan, Hisob-kitoblarga ko'ra, avstraliyaliklar har yili qimor o'yinlarining qonuniy shakllaridan taxminan 25 milliard dollar yo'qotishadi, bu dunyodagi aholi jon boshiga eng katta yo'qotishlarni anglatadi (Letts 2018; QGSO 2022) <sup>3</sup>. Yuqoridagi, odamlar uchun yuzaga kelgan ijtimoiy va iqtisodiy muammolar sababli hukumatlar uchun qimor o'yinlarini nazorat qiluvchi samarador qonunlarni yaratish dolzarb muammoga aylandi.

Hukumatlar tomonidan qimor o'yinlarini tartibga soluvchi qonunlar davlatlardagi madaniy va diniy qarashlar, siyosiy mafkuralar, qimorga bo'lgan tarixiy munosabat va iqtisodiy maqsadlarni inobatga olgan holda qabul qilingan. Qimor o'yinlarining jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashga qaratilgan yoki bir davlatdagi qimorni nazorat qiluvchi qonunlarning qanchalik samarali ekanligini ko'rsatuvchi bir qancha tadqiqotlar o'tkazilgan, ammo ushbu maqolada qimorni Buyuk Britaniya, Singapur va O'zbekiston misolida turli davlatlar qonunlar yordamida qanday nazorat qilinishini taqqoslash orqali o'ziga xos uslubda o'rganildi.

Davlatlar tomonidan turli qimorni qonun bilan tartibga solishi turli xil. Maqoladagi Buyuk Britaniya, Singapur va O'zbekiston qonunchiligi misolida qilinadigan qiyosiy tahlil qonunlarning qimor sababli vujudga keluvchi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf eta olish darajasini o'rganadi. Qaysi davlat tomonidan qo'llanilgan munosabatning samarali ekanligini aniqlash, kelgusida qimorni tartibga solishga qaratilgan samarali ya'ni jamiyat uchun manfaatli qonunlarni ishlab chiqishda ahamiyati yuqori hisoblanadi.

## II Metodologiya

<sup>2</sup> Marionneau, V., & Nikkinen, J. (2022). *Gambling-related suicides and suicidality: A systematic review of qualitative evidence*. *Frontiers in psychiatry*. <https://doi.org/10.3389/fpsyt.2022.980303>

<sup>3</sup> Australian Institute of Health and Welfare. (2023). *Gambling in Australia*. Retrieved from <https://www.aihw.gov.au/reports/australias-welfare/gambling>

Tadqiqotda, dastlab tanlangan Buyuk Britaniya, Singapur va O'zbekiston davlatlarining qonunchiligi o'rganildi. Davlatlar qonunchiligi o'rganilgandan so'ng, davlatlardagi qimor o'yinlariga aloqador mavjud statistikalar tahlil qilindi. Bu statistikalar qimor o'yinlarining ushbu davlatlardagi ijtimoiy va iqtisodiy holatga qanday ta'sir o'tkazayotganligini aniqlashga yordam beradi.

Ushbu ma'lumotlar hukumatlarning mavjud rasmiy elektron ma'lumotlar bazalari va rasmiy ilmiy maqolalardan olindi. Ma'lumotlarning bu kabi manbalardan olinishi tadqiqotning ishonchli va muhimligini oshirishga xizmat qiladi. Ma'lumotlar elektron izlash vositalari yordamida, izlash vositalarida "qimorni Buyuk Britaniyada tartibga solish" yoki "Singapur qonunchiligida qimorni tartibga solish" kabi kalit so'zlarni kiritish orqali rasmiy ma'lumotlar bazalari va ilmiy maqolalardan yig'ildi.

Yuqoridagi ta'kidlanganidek ma'lumotlarni yig'ish uchun rasmiy ma'lumotlar bazalariga murojaat qilinganligi ma'lumotlarning ishonchligini oshiradi. Qonunlarning samarali ishlayotganligini aniqlash uchun statistik ma'lumotlarni tahlil qilish samarali uslub hisoblanganligi uchun tadqiqotda bu usuldan foydalinildi.

### III Natijalar

Tadqiqotning ushbu qismida tadqiqot uchun tanlab olingan davlatlar tomonidan qimorni o'yinlarini qonun yo'li bilan tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarining xilma-xilligi va bu qonunlarning samaradorligini aniqlashga yordam beruvchi statistik ma'lumotlar taqdim etiladi.

A) Buyuk Britaniya, Singapur va O'zbekistonda qimorni tartibga solishning qonuniy tizimlari.

Buyuk Britaniyada qimor o'yinlari va ularni tartibga soluvchi qonunlar o'zining tarixiga ega.

Davlatda asrlar davomida mazkur o'yinlarni nazorat qiluvchi ko'plab hujjatlar qabul qilingan bo'lib, hozirda Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan 2005 yilda qabul qilingan "Gambling act of 2005" hujjatga ko'ra "Gambling Commission" nomli hukumat agentligi tomonidan amalga oshiriladi. "Gambling act of 2005" hujjati Buyuk Britaniyada Qimor kommissiyasining("Gambling Commission") faoliyatini, qimor o'yinlarini tashkil etuvchi operatorlarga litsenziya berishni, o'yinchilarni himoya qilish ya'ni reklama nazorati va yosh cheklovlari bilan bog'liq masalarni, onlayn qimorni, jazolash tizimini batafsil tartibga soladi<sup>4</sup>.

<sup>4</sup> *Gambling act 2005*. c. 19. UK (2005).

Ushbu hujjatda hukumat tomonidan belgilangan tartibda litsenziya olgan qimor o'yinlarini tashkil etuvchi tashkilotlar o'zining faoliyatini amalga oshirishi mumkinligi belgilangan. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib Buyuk Britaniyani dunyodagi eng liberal qimorni tartibga soluvchi davlatlardan biri deb hisoblash mumkin.

Singapurda qimor o'yinlari XIX asrda Britaniya koloniyalashtirilishi natijasida ommalasha boshlagan. Ammo yillar mobaynida qimor Singapurda taqiqlangan hisoblangan. 2005 yilda Singapur Bosh vaziri Lee Hsien Loong tomonidan qimorni qonuniylashtiruvchi qonun qabul qilingan. Hozirgi kunda bu davlatda qimor o'yinlari bir nechta qonunlar: "Qimorbozlikni tartibga soluvchi idors to'g'risidagi qonun 2022" (Gambling Regulatory Authority Act 2022), "Qimorbozlikni nazorat qilish to'g'risidagi qonun 2022" (Gambling Control Act 2022), "Kazinolarni tartibga solish to'g'risidagi qonun 2006" (Casino Control Act 2006) tomonidan va Qimorbozlikni tartibga soluvchi idora tomonidan tartibga solinadi<sup>5</sup>. Quyidagi jadvalda Singapurda qimor o'yinlari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan ba'zi tipik faoliyatlar va ularning qonuniyligi ko'rsatilgan:

| Qimor mashg'uloti                                                                                                    | qonuniy / noqonuniy (va sababi)                                                                                                                                                                      | Jazo (agar mavjud bo'lsa)                                                                                                                                                                                       |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Qimor o'ynash faqat ikkita Singapurdagi kazinolarda (Marina Bay Sands and Resorts World Sentosa Integrated Resorts). | <b>Qonuniy.</b> Singapurdagi ikkita kazinolar hukumatning qonuniy faoliyat olib borishga ruxsat beruvchi litsenziyasiga ega.                                                                         | —                                                                                                                                                                                                               |
| Bukmeklar orqali qimor o'ynash                                                                                       | <b>Qonuniy</b> , agar garov qonuniy bo'lgan Singapore Pools va Singapore Turf Club kabi hukumat tashkilotlari orqali tikilsa, chunki ular litsenziyalashtirilgan xizmat ko'rsatuvchilar hisoblanadi. | Sudlangan shaxs (ya'ni, "bukmeklar" bilan pul tikkan shaxs) eng ko'pi bilan 10,000 dollar miqdorida jarimaga, 6 oygacha ozodlikdan mahrum qilishga yoki ikkala jazo turiga ham tortilishi mumkin <sup>6</sup> . |

<sup>5</sup> Gambling regulatory authority of Singapore.(2024). *What GRA regulates*. <https://www.gra.gov.sg/>

<sup>6</sup> *Gambling Legally (at Home, in Public or Online) in Singapore*.(2022, august 3). Singapore Legal Advice. <https://singaporelegaladvice.com/law-articles/gambling-legally-home-public-online-singapore/>

|  |                                                                                      |  |
|--|--------------------------------------------------------------------------------------|--|
|  | <b>Noqonuniy</b> , agar garovlar<br>xususiy(nodavlat) bukmekerlar orqali<br>tikilsa. |  |
|--|--------------------------------------------------------------------------------------|--|

Yuqoridagi ma'lumotlarda Singapurda qimor o'yinlariga faqat ikki kazino va hukumat tomonidan qat'iy nazorat qilinuvchi bukmekerlar orqali ruxsat berilganligini ko'rish mumkin.

O'zbekistonda qimor qadimdan qoralanib kelingan va buning sababi aholining madaniy va diniy qarashlari bilan bog'lash mumkin. O'zbekiston tadqiqotga qimorni taqiqlagan davlatlardan biri sifatida tanlab olingan. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni qonunga xilof tashkil etish va o'tkazish jinoiy javobgarlikka asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278-moddasida: "Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o'tkazish, shu jumladan ana shunday o'yinlar uchun qimorxonalar tashkil etish yoki ularni saqlash — yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi"<sup>7</sup> deb belgilangan. Shuningdek O'zbekistonda qimor "Qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamsi qarori bilan tartibga solinadi. O'rganilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasida qimorni tartibga soluvchi qonunlar asosan taqiqlovchi xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi.

#### IV Muhokama

Buyuk Britaniya, Singapur va O'zbekiston qonunchilik tizimlaridagi qimorni tartibga soluvchi tashkilotlar va qonunlarni tahlil qilish natijasida Buyuk Britaniyaning qonunchlik tizimi qimor tartibga solish bo'yicha dunyodagi eng liberallaridan ekanligi, Singapurda qimorga ruxsat berilganligiga qaramay, ruxsat berilgan tashkilotlarning soni kamligi va qimorni nazorat qilish hukumat tomonidan ko'pgina qonunlar va agentliklar tomonidan amalga oshirilishi, O'zbekistonda esa qimor o'yinlari taqiqlanganligi va qonunni buzganlar uchun qat'iy sanksiyalar belgilanganligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek tadqiqot shuni ko'rsatdiki samarali qimorni nazorat qiluvchi qonunlarni yaratish davlatlar uchun dolzarb hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalarining ahamiyati shundaki, kelgusida qimorni tartibga soluvchi qonunlar ishlab chiqishda tadqiqotda o'rganilgan davlatlar misoli tadqiq qilinadi va buning natijasida yanada samarali va jamiyat uchun manfaatli qonunlar ishlab chiqiladi.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.(1994).

Tadqiqotda mavjud ma'lumot kamligi va ko'pgina statistik ma'lumotlarni ochiq ma'lumotlar bazalaridan yig'ishning imkoni yo'qligi sababli tadqiqotda kam hajmdagi ma'lumotlardan foydalinildi. Yig'ilgan ma'lumotlar hajmining kamligi va ma'lumotlar yig'ish uchun tanlab olingan davlatlar sonining kamligi tadqiqotning ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kelgusi tadqiqotlar ko'proq hajmdagi statistik ma'lumotlar olish va bevosita odamlarning bu mavzuda fikrini o'rganishga qaratilgan so'rovnomalar va ekspert mutaxasislarning fikrlarini o'rganish orqali tadqiqotlarining ishonchligini oshira olish mumkin.

### V Xulosa

Qimor o'yinlari asrlar davomida insoniyatga ta'sir o'tkazmoqda. So'ngi yillardagi texnologik yutuqlar esa qimor o'yinlarning turlarini ko'paytirish bilan birga ularda ishtirok etishni ham osonlashtirdi. Bu esa davlatlar uchun yangi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Natijada qimorni nazorat qilish dolzarb muammoga aylandi. Bu fikrni yuqorida keltirgan statistic ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Qimorni nazorat qilish uchun, albatta, samarali qonunlar zarur. Ushbu tadqiqotda qimorni nazorat qiluvchi qonunlarning tanlangan Buyuk Britaniya, Singapur va O'zbekiston kabi davlatlarda samarasi statistik ma'lumotlar tahlili orqali o'rganildi.

Dastlab esa ushbu davlatlarda qimorni nazorat qiluvchi qonunchilik tizimlarining eng asosiy xususiyatlari aniqlab olindi.

O'rganilgan ma'lumotlar tanlab olingan davlatlarning orasida Buyuk Britaniya eng liberal tizimlardan biriga ega ekanligi tasdiqlandi. Tanlab olingan qimorni nazorat qiluvchi davlatlar orasida O'zbekistondagi qonunlarning taqiqlovchi xususiyatga ega ekanligi tasdiqlangan bo'lsa, tahlil qilingan statistik ma'lumotlar Singapurda qimorga aloqador ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning hajmi kam ekanligini ko'rsatdi. Bundan Singapurdagi qimorni tartibga soluvchi qonunlarning samarasi tanlab olingan davlatlar orasida eng samarador ekanligi aniqlandi.

Aniqlangan ma'lumotlar kelgusida qimorni nazorat qiluvchi qonunlar tizimi yaratilishida ahamiyatga ega hisoblanadi. Singapurning qimorni nazorat qilishga qaratilgan qonunlar tizimi boshqa davlatlar uchun model sifatida olish mumkin. Shuningdek, tadqiqot Singapur kabi qimorni qat'iy nazorat qiluvchi davlatlarning tizimi samarali ekanligini ko'rsatdi. Kelajakda tadqiqotchilar ushbu tadqiqotdagidan ko'proq davlatlarning qonunchiligini va ma'lumotlar bazalarini tahlil qilishi va aniqroq xulosalarga yetishlari orqali qonunchilikni yanada takomillashtirishlari mumkin.

### REFERENCES

1. Glimne, Dan. (29 October 2024). Gambling. In *Encyclopedia Britannica*, <https://www.britannica.com/topic/gambling>. Accessed 2 November 2024.

2. Marionneau, V., & Nikkinen, J. (2022). *Gambling-related suicides and suicidality: A systematic review of qualitative evidence*. *Frontiers in psychiatry*. <https://doi.org/10.3389/fpsy.2022.980303>
3. Australian Institute of Health and Welfare. (2023). *Gambling in Australia*. Retrieved from <https://www.aihw.gov.au/reports/australias-welfare/gambling>
4. *Gambling act 2005*. c. 19. UK (2005).
5. Gambling regulatory authority of Singapore.(2024). *What GRA regulates*. <https://www.gra.gov.sg/>
6. *Gambling Legally (at Home, in Public or Online) in Singapore*.(2022, august 3). Singapore Legal Advice. <https://singaporelegaladvice.com/law-articles/gambling-legally-home-public-online-singapore/>
7. *O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi*.(1994).